



**MINTAQAVIY XIZMAT KO'RSATISH TIZIMIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNING
IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

Abdullayev Olimjon

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0004-8580-5859

agolider1987@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda mintaqaviy xizmat ko'rsatish tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari Qashqadaryo viloyati misolida o'rganilgan. Tadqiqot davomida xizmat ko'rsatish sohasining hududiy rivojlanish xususiyatlari, tarkibiy siljishlar dinamikasi hamda ularning iqtisodiy natijalarga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida xizmat ko'rsatish tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish sohasi, tarkibiy o'zgarishlar, iqtisodiy samaradorlik, baholash metodologiyasi, hududiy rivojlanish, xizmatlar bozori, iqtisodiy tahlil.

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ
ЭФФЕКТИВНОСТИ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В СИСТЕМЕ РЕГИОНАЛЬНОГО
ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ УСЛУГ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Абдуллаев Олимжон

Университет экономики и педагогики

Аннотация. В данном исследовании на примере Кашкадарьинской области рассматриваются вопросы оценки экономической эффективности структурных изменений в региональной системе услуг. В ходе исследования проанализированы характеристики регионального развития сектора услуг, динамика структурных сдвигов и их влияние на экономические результаты. По результатам исследования предложены научно-методологические подходы к совершенствованию методологии оценки экономической эффективности структурных изменений в системе услуг.

Ключевые слова: региональная экономика, сектор услуг, структурные изменения, экономическая эффективность, методология оценки, региональное развитие, рынок услуг, экономический анализ.

IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF STRUCTURAL CHANGES IN THE SYSTEM OF REGIONAL SERVICE PROVISION (ON THE EXAMPLE OF THE KASHKADARYA REGION)

Abdullaev Olimjon

University of Economics and Pedagogy

Abstract. *This study examines the economic efficiency of structural changes in the regional service system using the Kashkadarya region as an example. The study analyzes the characteristics of regional service sector development, the dynamics of structural shifts, and their impact on economic performance. The study proposes scientific and methodological approaches to improving the methodology for assessing the economic efficiency of structural changes in the service system.*

Keywords: *regional economy, service sector, structural changes, economic efficiency, assessment methodology, regional development, services market, economic analysis.*

Kirish.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasi muhim strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sektori iqtisodiy o'sish, aholi bandligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va hududiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli mintaqaviy darajada xizmat ko'rsatish tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarni iqtisodiy jihatdan baholash va ularning samaradorligini aniqlash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

So'nggi yillarda O'zbekiston hududlarida, jumladan Qashqadaryo viloyatida ham xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi sezilarli darajada faollashdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda xizmatlar sohasining umumiy hajmi 2025-yilda **54118,0 mlrd so'mni tashkil etib**, o'sish sur'ati 2024 yilga nisbatan **123 %** ga yetgan. Hududlar kesimida xizmatlar hajmining eng katta qismi Qarshi shahri hissasiga to'g'ri keladi.

Adabiyotlar sharhi.

Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining nazariy va amaliy jihatlari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlar Herbert, Grubel va Michael, Walker (1943) o'zlarining "Xizmatlar sanoatining o'sishi" nomli ilmiy ishlarida xizmatlar sektorining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, uning ishlab chiqarish va bandlikka ta'siri hamda xizmatlar iqtisodiyotining shakllanish jarayonlarini tahlil qilganlar.

Bill Hefley (2025) o'zining "Xizmat ko'rsatish iqtisodiyotidagi tadqiqotlar va innovatsiyalar" asarida xizmatlar sohasida innovatsiyalarni joriy etish, xizmatlar iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari hamda xizmatlar tizimining zamonaviy tendensiyalarini yoritib bergan.

Pardayev, Mirzayev va Pardayev (2011) tomonidan yaratilgan "Xizmat sohasi iqtisodiyoti" asarida xizmat ko'rsatish tarmog'ining iqtisodiy mohiyati, rivojlanish omillari va boshqaruv mexanizmlari tahlil qilingan.

Pardayev va Ochilov (2011) o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari, boshqaruvni takomillashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash masalalarini o'rganishgan.

Bundan tashqari, O'razov, Xudayberdiyev va Annayev (2011) tomonidan xizmat ko'rsatish korxonalarida buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda 2018-2025-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi dinamikasi statistik va tendensiyaviy tahlil usullari yordamida baholandi. Shuningdek, hududiyalarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi hajmining Respublika ko'rsatkichlariga nisbatan ulushi qiyosiy tahlil asosida aniqlanib, olingan natijalar umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda. Hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonida xizmatlar sektorining ulushi ortib borishi mintaqaviy iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi va aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish va uning tarkibiy o'zgarishlarini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining umumiy hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, 2024-yilda viloyatda hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **43857,6 mlrd so'mni** tashkil etib, o'sish sur'ati **122 %** ga yetgan. 2025-yilda esa hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi yanada ortib, **54118,1 mlrd so'mni** tashkil etib, o'sish sur'ati **123% foiz** atrofida shakllangan. Mazkur ko'rsatkichlar xizmat ko'rsatish sohasining viloyat iqtisodiyotida muhim o'rin egallayotganligini ko'rsatadi.

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi tahlili viloyatning ayrim hududlarida xizmatlar bozori nisbatan faol rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Jumladan, xizmatlar hajmining eng katta ulushi Qarshi shahri hissasiga to'g'ri kelib, viloyat bo'yicha umumiy xizmatlar hajmining qariyb **26-27 foizi** aynan ushbu hududda shakllanadi. Shuningdek, Kitob, Koson va Qarshi tumanlari ham xizmatlar sohasining rivojlanishida yetakchi hududlar qatoriga kiradi. Bu esa mazkur hududlarda tadbirkorlik faoliyatining faolligi, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganligi hamda aholining to'lov qobiliyatiga ega talabining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Yuqoridagi jihatlarni e'tiborga olgan holda xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlariga to'xtalib o'tamiz (1-jadval).

2018-2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi chuqur tarkibiy va miqdoriy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davr boshida viloyat bo'yicha hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar 12278,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 54118,01 mlrd so'mga yetgan. Natijada, mazkur davr mobaynida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi qariyb 4,5 baravarga oshgan. Ushbu o'sish hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining makroiqtisodiy rivojlanishdagi rolini kuchayganini hamda xizmatlar bo'yicha operatsiyalarining iqtisodiyotdagi ahamiyati sezilarli darajada ortganini anglatadi.

Viloyat miqyosida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining vaqt mobaynida o'sish jarayoni bir maromda emas, balki jadallashib boruvchi xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2021-yildan keyingi davrda xizmatlar hajmining keskin oshishi kuzatilib, bu holat hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tartibga solishdagi institutsional islohotlar, xizmatlar ko'rsatish hajmi yanada yaxshilanayotganidan darak beradi.

Viloyat hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining dinamik tahlili shuni ko'rsatadiki, 2018-2022-yillar davomida o'sish nisbatan barqaror va izchil bo'lgan.

Aynan ushbu davrda Qashqadaryo viloyatining hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi ham ortib borib, 2018-yilda 4,5 foizga yetgan. Bu ko'rsatkich viloyatning ko'rsatilgan xizmatlar hajmi nisbiy mavqei mustahkamlanganini ifodalaydi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Qashqadaryo viloyati	12278,7	15822,4	17876,8	22738,1	28633,8	35747,4	43857,6	54118,0
Qarshi sh.	3719,4	3914,3	3059,9	3721,9	4001,4	4793,0	6723,4	8895,5
Shahrisabz sh.	230,6	349,4	626,5	797,8	763,9	954,2	1279,7	1586,8
tumanlar:								
G'uzor	253,5	367,3	536,7	654,8	582,9	706,1	912,6	1124,4
Dehqonobod	146,9	233,2	353,0	590,1	524,1	673,0	829,2	1023,2
Qamashi	226,8	321,4	490,7	612,1	1130,1	1379,2	1724,2	2134,7
Qarshi	239,8	393,8	573,1	727,6	1138,2	1465,5	1804,5	2274,9
Koson	381,0	507,4	635,4	790,3	878,3	1050,5	1456,2	1819,1
Kitob	309,8	450,6	640,5	795,3	1164,8	1492,8	1838,0	2294,4
Mirishkor	113,9	198,1	418,8	520,7	768,8	946,0	1184,7	1457,7
Muborak	265,4	338,3	469,2	544,7	866,8	1053,0	1306,5	1643,2
Nishon	173,2	316,0	470,1	571,7	730,3	944,4	1121,5	1395,8
Kasbi	133,5	225,8	438,0	542,7	841,8	1061,8	1314,6	1651,4
Ko'kdala	-	-	-	-	291,3	356,3	421,8	527,9
Chiroqchi	264,3	435,2	604,3	756,1	536,8	668,3	776,6	953,5
Shahrisabz	344,0	352,6	500,0	633,2	937,4	1092,1	1323,4	1630,7
Yakkabog'	262,0	397,6	533,2	648,3	810,7	974,1	1174,8	1468,6

Manba: <https://stat.uz/uz/>, <https://www.qashstat.uz/uz/>

Umuman olganda, o'tkazilgan tendensiyaviy va statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi jadal rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayon hududlar kesimida notekis xarakterga ega.

Birinci navbatda, viloyat markazi hisoblangan **Qarshi shahri** xizmat ko'rsatish sohasining eng yirik markazi hisoblanadi. Bu hududda savdo, transport, moliyaviy xizmatlar, aloqa, umumiy ovqatlanish va turli maishiy xizmatlar keng rivojlangan. Shuningdek, aholi zichligi yuqoriligi va tadbirkorlik subyektlari sonining ko'pligi xizmatlar hajmining katta ulushini aynan ushbu hududda shakllanishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchi guruhga iqtisodiy salohiyati nisbatan yuqori bo'lgan **Qamashi, Qarshi, Kitob** tumanlari kiradi. Ushbu hududlarda savdo, transport, turizm va maishiy xizmatlar sohalari rivojlangan bo'lib, viloyat xizmatlar hajmida sezilarli ulushga ega. Ayniqsa, Shahrisabz hududida turizm va savdo xizmatlarining rivojlanishi xizmatlar hajmini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Uchinchi guruhga o'rtacha darajada xizmatlar rivojlangan **Chiroqchi, Muborak, Kasbi** va **Shahrisabz** tumanlari kiradi. Bu hududlarda xizmatlar ko'proq savdo, transport va maishiy xizmatlar bilan bog'liq bo'lib, sanoat va qishloq xo'jaligi faoliyati xizmatlar bozorining shakllanishiga turtki bermoqda.

To'rtinchi guruhga esa xizmat ko'rsatish hajmi nisbatan past bo'lgan **G'uzor, Chiroqchi** va **Ko'kdala** tumanlari kiradi. Ushbu hududlarda aholi sonining kamligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda iqtisodiy faoliyatning asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi xizmatlar sohasining rivojlanish sur'atlarini cheklab kelmoqda.

Umuman olganda, hududlar kesimida xizmatlar hajmini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasi viloyatning iqtisodiy markazlari va aholi zich joylashgan hududlarda yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, chekka va qishloq hududlarida bu ko'rsatkich nisbatan past. Shu sababli xizmatlar bozorini hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash xizmat ko'rsatish sohasining hududiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va tavsiyalar.

O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, 2018–2025 yillar davomida Qashqadaryo viloyatida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida izchil rivojlanib bordi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmatlar hajmining o'sishi viloyat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning yuz berishiga, iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyalanishiga hamda yangi xizmat turlarining shakllanishiga olib keldi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, mazkur davr mobaynida viloyatda xizmat ko'rsatish hajmi sezilarli darajada oshgan bo'lib, bunda savdo, transport, moliyaviy xizmatlar, aloqa, turizm hamda maishiy xizmatlar asosiy o'sish drayverlari sifatida namoyon bo'ldi. Shuningdek, hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faollashuvi xizmatlar bozorining kengayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini baholashning mavjud metodologik yondashuvlari tahlil qilinib, ularning ayrim kamchiliklari aniqlangan. Xususan, baholash jarayonida hududiy xususiyatlarni yetarli darajada hisobga olinmasligi, xizmatlar turlari bo'yicha tarkibiy siljishlarni kompleks baholash usullarining yetarli darajada takomillashmaganligi kuzatildi.

Shu bois, xizmat ko'rsatish tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini baholashda kompleks ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish, hududiy omillarni hisobga olgan holda metodologik yondashuvlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mintaqada xizmat ko'rsatish sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashga hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / Reference:

Bill Hefley (2025) *“Service Science: Research and Innovations in the Service Economy”* ISSN:1865-4924 Springer Nature.

Herbert G. Grubel and Michael A. Walker (1943) *“The Economics of the service sector in Canada, ISSN: 0835-4227, ISBN: 0-88975-128-5.*

O'razov K.B., Xudayberdiyev N.U., Annayev M.B. (2011) *“Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida buxgalteriya hisobi va auditing dolzarb masalalari” Monografiya. –T.: “Iqtisodiyot nashriyoti”, - 260 b.*

Pardayev M.Q., Mirzayev K.J., Pardayev O.M. (2011) *“Xizmat sohasi iqtisodiyoti” O'quv qo'llanma. T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, - 384 b.*

Pardayev M.Q., Ochilov I.S. (2011) *“Xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari” Monografiya. - T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 10-18 b.*

Pardayev O. (2017) *“Maxsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari”.* Toshkent.

Xudoyorova, M. O. (2025). *Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishida xorijiy investitsiyalarning roli.*

Yuldashva SH.M. (2004) *Sanoat tarmoqlari texnologiyasi (o'quv qo'llanma) – T.: TDIU, - 304 bet.*